

## Adabiyot Yashasa Millat Yashaydi

Buriyev Shavkat Kushmamatovich<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Adabiyot fani tariximizga borib taqaladi. Adiblarimiz xalq qalbiga yetib borish, ularni to'g'ri yo'lga chorlash maqsadida adabiyotni ishga solishgan. Bolalarni tarbiyalash va vatanga muhabbatni jo qilish maqsadida dostonlar, g'azal va ruboilardan foydalanishgan. Maqolamizda adabiyotning millat hayotiga ta'siri haqida yoritamiz.

Har qanday chinakam iste'dod sohibi kabi Abdulhamid Cho'lpon ham ijodning deyarli hamma sohalarida samarali faoliyat ko'rsatgan. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon, ham publitsist bo'lishi bilan birga, barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos, o'ziga xos tarzda fikrlaydigan san'atshunos ham bo'lgan. Uning badiiy asarlari xalq ma'naviyatini shakllantirishda qancha muhim rol o'ynagan bo'lsa, adabiy-tanqidiy maqolalari ham shunchalik katta qimmatga ega.[1] Amm istibdod zamonida cho'lpon haqida yozuvchi shoirlarning o'zлari ham mavhum tasavvurga ega bo'lishgan.

Cho'lpon adabiy-tanqidiy merosining ahamiyati faqat shu bilan cheklanmaydi. Yuqorida aytganimizdek, Cho'lpon tanqidiy faoliyati bilan estetika sohasida yangi bir ta'limot yaratishni maqsad qilib qo'yagan bo'lsa-da, uning maqolalarini ichki yaxlitlikdan mahrum, har xil yillarda har xil munosabatlar bilan yozilib, har xil narsalar to'g'risida bahs yurituvchi parokanda asarlar yig'nog'idan iborat deb qarash mumkin emas. Aksincha, har bir maqolaniyg yugurik misralari ortidan Cho'lponning o'zi qarab turganday bo'ladi. Har bir maqolada Cho'lpon shaxsiyatining aniq muhri borki, xuddi shu narsa ularni bir yaxlit holga keltirib turadi.[1] O'tgan asrning 20-yillarida Cho'lpon sermahsul shoir sifatida e'tiborga tushadi va she'riy to'plamlari ketma-ket nashr etiladi. Ayniqsa, «Uyg'onish» (1922), «Buloqlar» (1922), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1935) majmularini o'quvchilar sevib mutolaa qilishgani haqida manbalarda ta'kidlanadi. Bundan tashqari, nasriy asarlari orasida «Do'xtur Muhammadiyor», «Qor qo'yinida lola» hikoyalari, «Yov» qissasi, «Kecha va kunduz» romanining «Kecha» qismi diqqatga sazovordir.

Cho'lpon ilk ijodiy pillapoyalarida yer va el (vatan va millat)ning abadiy aloqadorligi, birligi masalasini tarannum etdi. Buning uchun u qanday va qaysi yo'l bilan Vatan va millat uyg'unligini ko'tarish va kuylash mumkin, degan savol ichida fikrladi.[2] Xalqimizning uzoq asrlardan buyon adabiyotga yaqinligi va adabiyotning xalq tarixi va taqdirini yoritib kelganini, shu tufayli u qanchalik xalqni chuqur his qilgani va bilgani uchun, boshqa xalqlar tarixini, hayotini ham adabiyotdan bilib olish mumkinligini anglab, adabiyotning ahamiyatini nazariy asoslashga muvaffaq bo'ldi. Adabiyotni shunchaki ko'ngil va tasavvur o'yini emas, u ijodiy jarayondagi murakkab hodisa ekanligini ifodalash yo'liga kirdi. Adabiyot odamlarda ma'naviy his-hayajon, tuyg'u uyg'otadigan go'zallik namunasi. Adabiyotning o'z ichki qonuniyati, ta'sir kuchi va imkoniyatlari uning badiiy go'zallik qasri ekanligidan dalolat bersa, bu qasrning mavqeい, ahamiyati va kelajagi undan ta'sirlangan, o'zlashtirgan xalq, ijtimoiy muhit, diniy va falsafiy g'oyalar bilan qanchalik uyg'unligiga bog'liq. Adabiyotning xalq, davr va tarixiy ijtimoiy muhitdagi o'rni, ahamiyati unga bo'lgan munosabatda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'z davri muammolaridan uzoqlashib, xalq, Vatan dardi, muammolari, hayoti aks etib turmasa bunday adabiyot yer va elga begonadek tuyuladi.[2] Adabiyot yuraklarga kirib bora oladigan bir kuchdir. Bu kuchni to'g'ri yo'naltira olish, butun boshli millat hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Cho'lpon kabilar esa o'z ijodlarini millatni uyqudan uyg'otish, g'aflat domiga tortib ketayotgan mustamlakalikdan erkinlik sari olib chiqishga undaydi.

<sup>1</sup> Yangiyo'l tuman 2-sон kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyoti fan o'qtuvchisi



Ozarbayjon yohud tatarlar yurtlarida ham adabiyotning, mohiyatini izlash, uning jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyatini aniqlash harakati ancha avj olgan edi. Natijada, «adabiyot nadur?» degan mangu savolga turli mintaqalarda bir-biriga yaqin javoblar paydo bo‘la boshlagan edi, Ozarbayjon adiblari Jalil Mamadqulizoda yohud Abdurahim Haqverdievlarning, tatar yozuvchiları Abdulla To‘qay, yohud Olimjon Ibrohimovlarning XX asr boshlarida chop etilgan adabiyot haqidagi maqolalari fikrimizning dalili bo‘la oladi. O’z izlanishlari oqibatida ular naqadar bir-biriga yaqin xulosalarga kelganini ko‘rsatish uchun bir konkret misolga murojaat qilaman: taniqli qozoq jurnalisti, ma’rifatparvar va demokrat M. Seralin o‘zi muharrirlik qylgan «Ayqap» jurnalining 1922 yildagi 1-sonida yozadi: «Til va adabiyot xalqning qalbi va ruhidir... adabiyotsiz xalq zabonsiz boladay gap. Bunday bola boshqalarga o‘zining dardu quvonchlarini gapirib berolmaydi. Xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan eng kuchli vosita til va adabiyotdir. O’z adabiyotining haqiqiy qadr-qimmatini bilgan xalqlarning farzandlarigina o‘z tilini chinakam ardoqlay oladi. Qozoq xalqining o‘z tili va o‘z adabiyoti bor... bizning burchimiz unutilib yotgan ulkan xazinalarni yuzaga olib chiqish va hammaning mulkiga aylantirishdir»[3]

Endi Cho‘lponga murojaat qilaylik. «Yosh munaqqid «Adabiyot nadur?» maqolasida, birinchi navbatda, adabiyotning ijtimoiy mohiyati to‘g‘risida fikr yuritadi. Uning fikricha, adabiyot millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma’naviyatiny ta’minlaydigan omil. Cho‘lpon bu xulosaning chinligiga shu qadar ishonganki, maqolada hech qanday e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan tarzda «adabiyot yashasa —millat yashar» deya tasdiqlaydi: «Ha, to‘xtamasdan harakat qilib turg‘on vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa —millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘an va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo‘lur». Biri Turkistonda, biri Qozog‘istonda turib, bir-biridan bexabar holda ikki muallif deyarli bir xil tarzda adabiyotning mohiyati, jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritmoqda. Bundagi mushtaraklik tasodif emas, albatta. Bu shu bilan izohlanadiki, XX asr boshlarida Turkistonda ham, Qozog‘istonda ham ulug‘ Uyg‘onish shabadalari esa boshlagan edi. Turkistonda shu kezlarda tarix maydoniga kirib kelgan, keyinchalik «jadidlar» deb nom olgan fikri ochiq, taraqqiyparvar ziyolilar bu uyg‘onishni ta’milagan asosiy kuch bo‘ldi. Ular mustamlakachilik siyosati tufayli Turkiston zabun ahvolga tushib qolganini, xalq jaholat va nodonlik qo‘ynida, erksizlik bo‘yinturug‘i ostida ikkiyoqlama zulm iskanjalari ostida qattiq ezilib yotganini chuqur angladilar va bunday hayotni o‘zgartish, yangilash zarurligi haqidagi g‘oyalarni olg‘a surdilar. Ular xalqni ma’rifatli qilishni, saviyasini ko‘tarib, oq-qorani taniydigan qilishni yangilanishning birlamchi sharti deb bildilar va shu oljanob niyatni amalga oshirish uchun fidoyilik bilan ishga kirishdilar. Ular har xil ta’qib va ta’qiqlarga qaramay, moddiy qiyinchiliklarni yengib maktablar ochdilar, darsliklar yaratdilar, gazetalar chiqardilar, nashriyotlar ochib kitoblar chop etdilar, turli madaniy-ma’rifiy to‘garaklar ochdilar...[4]

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/adabiyot-yashasa-millat-yashar>
2. <https://adti.uz/adabiyot-yashasa-millat-yashaydi/>
3. Ozod Sharafuddinovning “Tanlangan asarlar” saylanmasi, “Cho’lponni anglesh ” , “Adabiyot yashasa –millat yashaydi” nomli maqolasi ;“Jahon Adabiyoti ”jurnali 2010-yil 10-son’
4. <https://www.conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1661/1582>

